

AI VOSITALARI VA SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYA QILISH: KELAJAKDAGI HUQUQIY MUAMMOLAR

Zamonov Azizbek Faxriddin o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti

1-kurs talabasi, Azizbekzamonov64@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17592413>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 1-noyabr 2025 yil
Ma'qullandi: 3-noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 10-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

Sun'iy Intellekt (AI), Shaxsiy Ma'lumotlar, Maxfiylik, GDPR, Zero Trust, Kiberxavfsizlik, Huquqiy muammolar, Algoritm shaffofligi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada AI vositalarida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishning huquqiy asoslarini o'rganish haqida so'z yuritiladi va shu bilan birgalikda O'zbekistonning 2019-yildagi "shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida" gi qonuni va konstitutsiyaning 27- moddasi, shuningdek xalqaro tajriba (GDPR, Estoniya-X-Road, Singapurda PDP) qonunlari ko'rib chiqiladi. Texnologik yechimlar sifatida biometrik ma'lumotlarni shifrlash va "ZERO TRUST" tizimini joriy etish taklif etiladi.

KIRISH

Su'niy intellekt (AI) texnologiyalari inson fikrlashini avtomatlashtiruvchi tizimlar majmuasi sifatida ta'riflanadi. Bunday vositalarga misol qilib CHATGPT, CAPILLOT, MINDJOURNEY va FACE ID kabi bir qancha tizimlarni keltirishimiz mumkin. AI texnologiyalari hayotimizning deyarli barcha sohalariga kirib kelayotganligi sababli yig'ilayotgan va qayta ishlanayotgan shaxsiy ma'lumotlar keskin oshib bormoqda. Bu jarayon axborot xavfsizligi, huquqiy himoya, etik masalalarni muhim darajada dolzarblashtiradi. AI tizimlari orqali ishlanayotgan shaxsiy ma'lumotlar to'plami inson huquqlariga bevosita ta'sir qilmay qolmaydi. Bu esa shaxsga doir hujjatlarning noqonuniy tarqalishi va jiddiy huquqiy xavflarni keltirib chiqaradi. Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, AI ning jadal rivojlanishi mavjud qonunchilikka tahdidlar tug'dirmoqda. AI nafaqat ma'lumotlarni yig'adi, balki ularni tahlil qilib, shaxsning maxsus ma'lumotlarini (sog'lik darajasini va partiyaviylikini) o'zida saqlab inson xulq-atvori haqida xulosalar qilishi mumkin. Axborot xavfsizligi sohasidagi statistikalar ham vaziyatning jiddiyligini tasdiqlaydi. 2024-yilda xavfsizlik tizimining buzilish holatlari global miqyosda 23 % ga oshgan. O'zbekiston sharoitida ham ma'lumotlar bilan bog'liq 200 dan ortiq huquqbuzarliklar aniqlangan. Bu esa milliy himoya mexanizmlarini mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Ana endi shaxsiy ma'lumotlar tushunchasiga to'xtalsak. Shaxsiy ma'lumotlar-bu aniqlangan va aniqlanishi lozim bo'lgan shaxsga oid axborotni anglatadi. Ular quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) Oddiy ma'lumotlar: shaxsni bevosita identifikatsiya qiluvchi ma'lumotlar. Masalan, shaxsning ismi, familiyasi, telefon raqami, manzili va shunga o'xshash hamma bilishi va foydalanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar shular jumlasidan.

- 2) Maxsus ma'lumotlar: bu shaxsga tegishli bo'lgan va yuqori darajadagi himoyalaniшни talab qiladigan sezgir axborotlardir. Misol uchun, shaxsning sog'ligi, holati va partiyaviylik darajasiga bo'lgan munosabati. AI vositalari, masalan, FACE ID tizimi maxsus (biometric ma'lumotlar) ni qayta ishlaydi.

Bu masalada huquqiy asoslar qayerda va ular qaysilar degan savol tabiiyki tug'lishi mumkin, shuning uchun bir qancha huquqiy asoslarni ko'rib chiqamiz. Bulardan biri bosh qomusimiz-O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasining 27-moddasida shaxsiy hayot daxlsizligi kafolatlanishidir. Ma'lumotlarni qayta ishlash tartiblari O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risi" dagi qonuni bilan belgilangan. Bu sohada xalqaro miqyosda muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlar quyidagilar hisoblanadi. Bulardan biri GDPR – (Generational data protect regulation) bo'lib, bu hujjat yevropa ittifoqi reglamenti hisoblanadi. BMT tavsiyalari -bu esa BMT hujjatlari va DIGITAL TRUST REPORT (2024) kabi muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlardan iborat.

AI jarayonlarida yuzaga kelayotgan asosiy huquqiy muammolar

AI texnologiyalarining ommalashuvi ma'lumotlar himoyasida 5 ta asosiy muammoni yuzaga keltirmoqda:

- 1) Ma'lumotlarning yetarlicha himoyalanganligi - AI katta hajmda ma'lumotlar (big data) bilan ishlaydi, bu esa ma'lumotlarni himoya qilish standartlari doimiy yangilanishini talab etadi.

- 2) Tizimlar o'rtasidagi integratsiyaning pastligi – bu shuni anglatadiki, turli axborot tizimlari o'rtasida xavfsiz va markazlashgan almashinuv mexanizmlarining yetarli emasligi ma'lumotlar xavfsizligida "bo'shliqlar" yaratadi.


- 3) IT kadrlari yetishmasligi - AI va kiberxavfsizlik bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarining yo'qligi himoya choralarini samarali amalga oshirishga to'sqinlik qiladi.

- 4) AI algoritmlarining shaffof emasligi - bu eng jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Ko'pincha AI tizimlari qanday xulosaga kelganligi haqida tushunarli ma'lumot bermaydi. Masalan, agar AI huquqiy qaror qabul qilsa va bu qaror asoslantirilmagan bo'lsa, huquqiy javobgarlikni belgilash qiyinlashadi, chunki AI inson emas va uni qilgan xatosi uchun javobgarlikka torta olmaymiz, lekin bu xato uchun kim javob beradi degan savol tug'iladi. Bunday holatda muammo yechimsiz qoladi.


- 5) Ma'lumotlarning xorijda saqlanishi - bu ham ancha yirik huquqiy muammolardan hisoblanadi, chunki AI ko'pincha chet el serverlarida joylashgan bo'lib, milliy qonunchilikda belgilangan hududiy cheklov va himoya talablarini chetlab o'tish holatlari vujudga keladi. Natijada, AI tizimi orqali ma'lumotlar chet el serverlariga sizib chiqadi va katta muammolar paydo bo'la boshlaydi

AI orqali sodir bo'lgan huquqbuzarliklarning statistik tahlili va bu holatni xalqaro tajriba bilan solishtirish.

International: Reported AI-related Personal Data Breaches (2016-2025) — Simulated



Uzbekistan: Reported AI-related Personal Data Breaches (2016-2025) — Simulated



Yuqoridagi diagrammalar 2016-2025 yillar oralig'ida AI texnologiyalaridan foydalanish jarayonida shaxsiy ma'lumotlar buzilishi holatlarining ortib boruvchi tendensiyasini ko'rsatadi. Xalqaro miqosida: 2016 yildan 2025 yilgacha bo'lgan davrda buzilishlar soni taxminan 8 baravar oshgan (120 tadan 1000 tagacha). O'zbekiston miqosida: 2016-2025 yillarda bu ko'rsatkich 0 dan 35 tagacha oshgan, bu esa so'nggi yillarda mamlakatda sun'iy intellekt texnologiyalarining keng qo'llanila boshlanishi va shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlash tizimlarining yetarlicha himoyalanganligidan dalolat beradi.

Xalqaro tajriba tahlili

Xalqaro darajada AI vositalarida shaxsiy ma'lumotlar buzilishi sonining o'sishiga quyidagi omillar sabab bo'lgan:

- AI texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi, jumladan, chatbotlar, yuzni aniqlash tizimlari, ovoz tanish dasturlari va ma'lumotlar asosidagi tavsiya algoritmlari keng qo'llanilishi, kompaniyalar tomonidan ma'lumotlar xavfsizligini yetarli darajada ta'minlanmasligi. Masalan, 2022-yilda "Clearview AI" va "Facebook" kompaniyalariga qarshi shaxsiy ma'lumotlardan noqonuniy foydalanish uchun bir necha million dollarlik jarimalar qo'llanilgan.
- Global monitoring va hisobot tizimlarining kuchayishi. 2018-yilda kuchga kirgan GDPR (Yevropa Ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti) tufayli ko'plab buzilish holatlari

ochiq aniqlana boshlandi. Natijada, xalqaro darajada AI bilan bog'liq ma'lumot buzilishlari soni yildan yilga ortmoqda. Bu esa yangi huquqiy mexanizmlar va tartibga solish choralari joriy etishni talab qiladi.

O'zbekiston holatini tahlil qilish

O'zbekiston bo'yicha simulyatsion tahlil 2016–2025 yillarda shaxsiy ma'lumotlar buzilishi sonining asta-sekin oshib borayotganini ko'rsatadi. Bu o'sishning sabablari quyidagilar:

- Raqamli transformatsiya jarayonlarining faollashuvi. 2020-yildan boshlab davlat xizmatlarining onlayn shaklga o'tishi, biometrik tizimlar joriy etilishi.
- AI texnologiyalarining amaliyotga kirib kelishi. Masalan, bank sohasida kredit skoringi, yuzni aniqlash orqali kirish tizimlari, ovoz bilan autentifikatsiya kabi vositalar qo'llanilmoqda. Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun (2019-yil) amalda bo'lsa-da, AI texnologiyalari uchun alohida normativ mexanizmlar hali ishlab chiqilmagan.

Shu bilan birga Jahon banki tahlillari ijobiy tendensiyalarni ham ko'rsatadi. Xavfsizlik choralari ko'rgan davlatlarda raqamli texnologiyalarga bo'lgan ishonch 45% ga oshgan. Bu statistika huquqiy tartibot va texnologik himoyaning bevosita iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirini tasdiqlaydi. Misol uchun, qaysidir davlatda AI tizimidan foydalanish tartibga solingan bo'lsa va shaxsiy ma'lumotlarning daxlsizligi qanchalik kuchli himoya qilinadigan bo'lsa, o'sha davlatga ishonch, albatta, oshadi. Himoya mexanizmlari haqida batafsil to'xtalsak, avvalo, xalqaro tajribaga yana yuzlanamiz. Ayrim davlatlar AI kontekstida shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha ilg'or texnologiyalarni ilgari surmoqda. Misol uchun, Estoniyada davlat turli ma'lumotlar bazalarini almashish uchun X-Road tizimidan foydalanadi. Janubiy Koreyada esa bu tizim KISA (Koreya internet security agency) deb nomlanadi va bu tizim orqali ma'lumotlar xavfsizligini real vaqt rejimida nazorat qilish yo'lga qo'yilgan. Singapurda esa shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha PDPA (Personal data protection act) qonuni qabul qilingan. Eng muhimi bu mamlakatda AI tizimlari joriy etilishidan oldin majburiy etik ekspertizadan o'tkazilishi shart.

Aining yuridik faoliyatdagi samaradorlik tahlili

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish muammolariga qaramasdan, AI vositalari yuridik faoliyatda yuristlariga samarali yordam ko'rsatmoqda. AI tizimlari yuridik faoliyatni 40 % gacha tezlashtiradi va inson omiliga bog'liq bo'lgan xatoliklar sonini 25%ga qisqartiradi. Ushbu ijobiy natijalar BMT va Jahon banki tomonidan o'tkazilgan tahlillarda ham tasdiqlangan. AI vositalari ma'lumotlarni qabul qiladi, tahlil qiladi hujjatlarni tayyorlaydi va huquqiy me'yorlarni izlashda inson mutaxassislariga samarali yuridik yordamchi bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda O'zbekistonda bir qancha AI yuridik yordamchilar mavjud. Bular: LEX AI, TUZUK AI va SMART LEX kabi su'niy intellekt va qonun uyg'unligida yaratilgan saytlar fuqarolarga va davlat xizmatchilariga malakali yuridik yordam ko'rsatib kelmoqda. Bu kabi saytlarning asosiy vazifalari aqlli shartnomalar, chatbotlar va huquqiy tahlillar qila olishdir. Bundan tashqari LEX UZ sayti orqali fuqarolarimiz o'z huqlaridan va yaratilayotgan qonunlardan elektron tarzda xohlagan joyda va vaqtda foydalanish imkonini yaratmoqda. Bu sayt O'zbekiston Respublikasining elektron qonunchilik tizimi hisoblanadi va hozirda yaratilgan va yaratilayotgan qonun hujjatlarini "Lex uz" saytidan bema'lol topishimiz mumkin.

Takliflar va texnologik yechimlar

AI sharoitida shaxsiy ma'lumotlar himoyasini mustahkamlash uchun samarali takliflar berishimiz mumkin. Huquqiy sohada mutaxassilarning raqamli texnologiyalar borasidagi savodxonligini oshirish - bu juda muhim ish hisoblanib, kelgusida yuridik sohada ishlash

uchun universitetga kirgan talabalar uchun legal tech, kiber huquq va raqamli jinoyatlarga qarshi kurashish kabi fanlarni yaratish va malakali ustozlar tomonidan bu talabalarga mukammal o'rgatilishi orqali ish faoliyatida sodir bo'ladigan shaxsiy ma'lumotlarning AI yordamidagi himoyasi bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlar yetishtirish tavsiya qilinadi. Bundan tashqari, turli axborot tizimlarini xavfsiz va yagona platformaga birlashtirish lozim. Bu orqali biz shaxsiy ma'lumotlar himoyasini ishonchli mustahkamlashimiz mumkin. Xalqaro tajribadan Estoniyaning X-ROAD tizimi kabi vositalarni qonunchiligimizga va kundalik sharoitimizga moslashtirish orqali bu ishni amalga oshirish mumkin. Yana boshqa bir taklif sifatida biometrik ma'lumotlar kabi maxsus toifadagi ma'lumotlarni yuqori darajada shifrlash (kriptografiya) va AI asosida ishlaydigan ma'lumotlarning maxfiyligini real vaqtda tekshiruvchi vositalarni yaratishni keltirib o'tishimiz mumkin. Bunday tizimlardan biri "ZERO TRUST" tizimi hisoblanadi. Ushbu tizim tarmoq ichidagi va tashqarisidagi har bir foydalanuvchi va qurilmani ishonchli deb hisoblamaydi, doimiy ravishda audentifikatsiya va avtorizatsiya talab qiladi. Bu tizim "Kim bo'lishidan qat'iy nazar tekshir" degan qoida bilan o'z foydalanuvchisi, boshlig'i yoki boshqa shaxsiy qurimasi bo'lishidan qat'iy nazar tekshiradi.

Xulosa

Sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari hayotimizning deyarli barcha sohalariga kirib kelmoqda va yuridik faoliyatni sezilarli darajada yaxshilash (masalan, ishni 40% gacha tezlashtirish) kabi katta imkoniyatlar yaratadi. Ammo bu rivojlanish AI vositalari orqali qayta ishlanayotgan shaxsiy ma'lumotlar hajmini keskin oshiradi, bu esa axborot maxfiyligi, huquqiy himoya va etik masalalarni dolzarb qilib qo'yimoqda. Shaxsga doir ma'lumotlarning noqonuniy tarqalishi inson huquqlariga ta'sir qiluvchi jiddiy huquqiy xavflarni keltirib chiqaradi. Shu sababli AI huquqiy sohada samarali yordamchi sifatida ishlashi uchun ma'lumotlar himoyasini kuchaytirish, qonunchilikni takomillashtirish va IT mutaxassislarini tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Kelajakda AI etikasi huquqiy siyosatning ajralmas qismi bo'lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi " qonuni (2019)
2. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi konstitusiyasi (2023)
3. GDPR (General data protection regulation) – Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha Yevropa Ittifoqi reglamenti (2018)
4. PDPA (Personal data protection act), Singapur davlatining shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonuni (2014)
5. KISA (Korea internet security agency) (2012)
6. BMT, DIGITAL TRUST REPORT (2024)
7. Jahon banki, AI IN GOVERNMENT (2023)
8. AQSH federal savdo komissiyasi (FTC)